



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Обид Мамаюнович Пардаев Коммунал хизматларни кўрсатишда креатив ёндошув асосида синергетик самарага эришишнинг инновацион йўналишлари	87
Ибодулла Хасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабоева Подходы к исследованию мультиатрибутивных параметров на рынке образовательных услуг вузов: рекомендации и методология	92
Durbek Mirzaaxmadov Xizmat ko‘rsatish korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning xorij tajribasi	96
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Дилафруз Каршиевна Усманова Социальное партнерство как основа диверсификации национального туристского продукта Узбекистана	99
Farida Abdusalimovna Axmedjanova, Sadoqat Murodjonava Vahobova O‘zbekiston turizm xavfsizligini ta’minlashdagi huquqiy va amaliy chora-tadbirlar tahlili	109
Темурбек Бобурмирзо ўғли Саломов Хизмат кўрсатиш тизимида зиёрат туризмини ўрни ва ўзига хос хусусиятлари	111
Rayhona Sadriddinovna Amriddinova, Marjona Otabekovna Asliddinova Navoiy viloyatida qishloq turizmini rivojlantirishda marketing strategiyalarini qo‘llash	114
Зумрад Исламовна Усманова Развитие сферы услуг и туристической индустрии в Узбекистане: тенденции, вызовы и перспективы	117
Матлуба Абдиманабовна Куймуратова Туризмнинг турлари ва улар таркибида экологик туризмнинг ўрни ва аҳамияти	121
Хасан Абдусаидович Рахимов Туризм ва меҳмонхона соҳаси самарадорлигини оширишда қабул қилинадиган бошқарув қарорларининг таснифи	125
Askar Axrorovich Siddikov, Shukurullo Nusratullo o‘g‘li Haqqulov Turizm va mehmonxona sanoatining iqtisodiy ahamiyati	128
Akbarjan Sabirjanovich Madaxanov, Zaynab Sattarovna Naimova, Akmal Akbarjanovich Madaxanov Ekologik va rekreatsion turizm destinatsiyalarini yaratish va ulardan foydalanishda inson omili masalalariga doir mulohazalar	132
Nozima Miraxmad qizi Toirova Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish tendentsiyalari: innovatsion yondoshuvlar va ishlab chiqarish samaradorligi	137
Farida Abdusalimovna Axmedjanova, Bekjon Nizom o‘g‘li Ismatullayev Turizm va mehmondo‘stlik industriasida standartlashtirish va muvofiqlikni baholash xizmatlarining takomillashtirish yo‘llari	141
Rayhona Sadriddinovna Amriddinova Navoiy viloyatida qishloq turizmini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	144
Shaxnoza Toshpulatova Tarixiy arxitektura yodgorliklarining turizm sohasini rivojlantirishdagi ahamiyati va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri	147
Sitora Otabekovna Xamroyeva, Rayxona Sadriddinovna Amriddinova Innovatsion turizm sohasida zamonaviy marketing reklamalarining o‘rni	150
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Jahongir Bakhodirovich Ergashev Korxonalarda xarid faoliyatini tashkil etish va boshqarish xususiyatlari	153

Akbarjan Sabirjanovich Madaxanov – Andijon davlat tibbiyot instituti katta o‘qituvchisi, t.f.n.
Zaynab Sattarovna Naimova – Samarqand davlat tibbiyot universiteti katta o‘qituvchisi
Akmal Akbarjanovich Madaxanov – O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi,
«Xonobod» sanatoriyasi, shifokor-nevropatolog

EKOLOGIK VA REKREATSION TURIZM DESTINATSIYALARINI YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISHDA INSON OMILI MASALALARIGA DOIR MULOHAZALAR

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida ichki va tashqi turizm jadal rivojlanib borayotgan sharoitda, ekologik va rekreatsion turistik destinatsiyalarni yaratish va foydalanishda inson omilining roli va o‘rni masalalari qaralgan. Andijon viloyatining Xonobod shahrida ekologik va rekreatsion turistik destinatsiyalarni yaratish va foydalanish tarixi va tajribasiga doir qimmatli materiallardan iborat ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik turizm, rekreatsion turizm, turistik destinatsiyalar, inson omili, sayyohlar.

Kirish. XXI asrning birinchi choragi ham, dunyo miqyosida, turizm jadal sur’atlar bilan nafaqat iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanib borishida, balki insonlar hayotining demografik holati, ijtimoiy sharoitlari va ayniqsa ruhiy muhitining shakllanishiga sezilarli ta’sir qilishining davom etayotganligi bilan yakunlanmoqda. Shu bois, turistik resurslarga boy O‘zbekiston Respublikasida ichki va tashqi turizmni yanada jadal rivojlantirish masalasi davlat ahamiyatiga molik maqsad va vazifalar qatoridan o‘rin olmoqda [1,4,8]. Mamlakatda turizmning barcha turlarini, jumladan ekologik, tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda [5,7]. Turizmning ushbu turlari o‘z navbatida mavjud turistik destinatsiyalarni saqlash-avaylash, yangilarini yaratish va ulardan sayyohlar ehtiyojini qondira oladigan darajada foydalanishni tashkil etish masalalariga e’tibor yanada kuchaytirilishini taqozo qilishi tabiiy [10]. Ma’lumki, ko‘p yillar davomida Andijon viloyatining Xonobod shahri va uning yaqin atrof hududlarida, ekologik va rekreatsion turistik destinatsiyalarni nafaqat yaratish, balki sonini va turlarini ko‘paytirish, hajmini kengaytira borish, va eng muhimi ularni asrash-avaylash borasida, e’tiborga sazovor ishlar izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu maskanda to‘plangan boy tajribalarni chuqur va atroflicha o‘rganish va tahlil qilish asosida shakllangan ma’lumotlar, mamlakatimizda dolzarb bo‘lib turgan – yashil iqtisodiyotga o‘tish [3], respublikada yashillik darajasini yanada oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash [6], “Yashil” turizm salohiyatini rivojlantirish [10] kabi vazifalarni bajarishga doir amaliy tavsiyalar majmuasini yaratishda muhim manbaa sifatida xizmat qiladi, deb umid qilish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon miqyosida, mamlakatlar o‘rtasida siyosiy munosabatlarning yanada yaxshilanishi, iqtisodiy aloqalarning mustahkamlana borishi o‘z navbatida ichki va tashqi sayyohlar oqimining jadal sur’atlar bilan kengayishiga ijobiy ta’sir etmoqda. Ushbu qonuniyatli voqelik XXI asr turizmining nazariy va amaliy masalalarini atroflicha o‘rganishni taqozo etmoqda. Tuxliyev I.S. hammualliflikda yaratgan darslik ushbu yo‘nalishdagi mukammal ilmiy-amaliy ishlanmalar qatoridan o‘rin olgan [17]. Ekologik turizm masalalari, shuningdek Xayitboev T. tomonidan hammualliflikda tuzilgan uslubiy qo‘llanmada ham yoritilgan [19]. Ekologik va rekreatsion turizmning rivojlanishining bugungi holati, sohaning mavjud muammolari, ularni bartaraf etishga oid tavsiyalar majmuasini ishlab chiqish, istiqbollarni ta’minlash masalalariga qator mualliflarning ilmiy tadqiqotlari bag‘ishlangan [11,12,13]. Turayev B.X. hammualliflikda [16], hamda Sodiqova T. [15] va Shamsiddin Ismonlarning asarlarida [18] chevar tabiat, ezgulikka intilib yashayotgan insonlarning mehri va mehnati bilan bunyod etilgan, ekologik va rekreatsion resurslarga boy – Xonobod shahri haqida bayon qilingan. Tabiiyki, bunday shaharlar va u yerlardagi turistik destinatsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish muammo va mashaqqatlarsiz kechmagan. M.Q.Pardayevning “Insonning ruhiyati va kechinmalari haqida savol-javoblar” nomli ibratli bitiklarida ana shunday muammo va mashaqqatlarni yechishga yondashuvlarga doir tavsiyalar keltirilgan [14]. Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasida ichki va tashqi turizm jadal rivojlanib borayotgan sharoitda ekologik va rekreatsion turizmning moddiy-texnik va ma’naviy asosi – turistik destinatsiyalarni yaratish, asrab-avaylash va ulardan foydalanishda inson omilining roli va o‘rnini ko‘rsatib berishga bag‘ishlangan tadqiqotlar kamligi e’tiborni tortadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli yondashuv va tizimli tahlil prinsiplariga asoslangan bevosita kuzatish va sotsiologik usullar qoʻllanildi. Natijada Andijon viloyatining Xonobod shahri va uning yaqin atrof hududlarida, koʻp yillar davomida amalga oshirilayotgan ishlar haqida quyidagi muhim maʼlumotlarni yigʻish va tahlil qilish imkoni tugʻildi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi Xonobod shahar Hidirsha hududining togʻ-yonbagʻrida arxeologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning natijalari shuni koʻrsatdiki, Qadim Fargʻona (Davan) markazlashgan davlatchilik davrida vodiyning sharqida yangi boʻz yerlarni oʻzlashtirish uchun koʻplab suv inshootlarini bunyod etilishiga, ortidan esa, mintaqadagi urbanizatsion jarayonlarni kuchaytirib borgan. Hududdagi mavjud iqlim sharoiti, serunum yerlar hamda suv manbasini barqarorligi bilan bogʻliq ravishda masalan, Andijonsoy boʻyida oʻnlab, Shahrihonsoy boʻyida esa 40 dan ortiq obod manzilgohlar qad koʻtargan[9].

Ushbu shahar tarixiy rivojlanishining keyingi davrlarida ham inson omilining roli va oʻrnini beqiyos boʻlganligini koʻrish mumkin. Masalan, XIII asrlarda “Buyuk ipak yoʻli”ning karvonlar uchun qulay tabiiy-iqlim sharoitlari, sogʻlomlashtiruvchi va dam olish imkoniyatlarining boyligi bilan uzoq-yaqindan sayyohlarni jalb eta olishda, ezgulikka intilib yashagan ulamo Sayyid Fozilmon Dehlaviy umrining bu yerda oʻtgan davri bilan bogʻlash mumkin. U salomatligining tiklanishida xizmat va mehrlarini darigʻ tutmagan ushbu qishloq ahliga, hamda dardiga shifo baxsh etgan buloqqa umrining oxirigacha bogʻlanib qoladi. Buloq atrofini obodonlashtirishga bel bogʻlaydi. Uning gʻayrati va shijoati boshqalarni ham ruhlantiradi. Qishloq tez orada karvonlar eʼtiborini tortadigan darajada qiyofasini oʻzgartiradi va ular uchun qulay tunash joyiga aylana boshlaydi. [16].

Aholi yashagan ushbu hudud rivollanishining keyingi davrlarida ekologik va rekreatsion xususiyatlariga koʻra sayyohlar eʼtiborini torta olish darajasidagi “Beshkapa“ va “Xontaxt“ nomlari bilan ham mashhur boʻlgan. Fargʻona vodiysining eng sharqida joylashgan Xonobodning bugungi jamolini koʻrishdan bahramand boʻlish nasib etganlarning xayollari beixtiyor ushbu shaharning yaratilish davrlariga va uning jonkuyar qahramonlariga ketar ekan, ular kim, qanday insonlar edi, degan savollarning tugʻilishi tabiiy. Ushbu savollarga javob qidirishni maqsad qilib qoʻygan tadqiqotimizda, shaharning shakllanishi, bu yerda yashagan insonlarning hayoti, intilishlariga oid, chop etilgan maqolalar[12,13,17,19] va moʻjazzina kitobchalarda[16,18] keltirilgan maʼlumotlarga, ayniqsa oʻsha davrlarda turli lavozimlarda ishlab kelgan, bugungi kunda ham faol hayot kechirishda davom etayotgan insonlar bilan boʻlgan suhbatlarimizning natijalariga tayanishni maqsadga muvofiq hisobladik. Toʻplangan dastlabki maʼlumotlarni tahlil qilar ekanmiz, bu yerda, azaldan shu Zaminning tuprogʻi-yu havosini qadrlaydigan va uning kelajagi porloq boʻlishini taʼminlashga bel bogʻlagan koʻplab yosh-u qarilar yashab kelayotganligiga iqror boʻldik. Ular – asli ajdodlari shu yerlik yoki turli yurtlardan kelib qolgan boʻlishlariga qaramasdan, shu zaminga qattiq bogʻlanib qolganliklarini va umrlarining oxirigacha unga bor mehrlarini berib, uning obodonchiligi va keng maʼnodagi istiqbollari poydevorini yaratishga intilib yashaganliklari haqidagi maʼlumotlarni oldik. Bugungi kunda xonobodliklar oldida shaharni turistik maskan sifatida jozibadorligini yanada oshirib borishdek ulugʻvor maqsad turibdi. Bunda, Xonobod shahri va unda yashil turizmning barcha turlarini, jumladan ekologik va rekreatsion turizmni rivojlantirishning moddiy va maʼnaviy asosi – turistik destinatsiyalarni yaratish va ulardan foydalanishda inson omilining oʻrni va rolini yanada oshirishga oid olib borilishini taqozo etayotgan ishlar bilan bogʻliq qator muammolarni yechish dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida yangi Oʻzbekistonni yaratish va yanada taraqqiy ettirish ezgu niyatlari va beqiyos harakatlari bilan yashayotgan nafaqat yurtdoshlarimiz, balki qoʻshni davlatlarning keng jamoatchilik uchun ham 2024-yil, unutilmas sana boʻlib qolishi tabiiy. Zero, aynan 2024-yil, ona yurti ravnaqining fidoyisi, zabardast rahbar, umrining har daqiqasini ezgulikka intilish bilan oʻtkaza olgan inson – Solijon Mehmonov tavalludining 100 yillik yubileyi nishonlandi. Maʼlumki, oʻtgan XX asrning ikkinchi yarmi davomida, bugungi kunda turistik maskan sifatida jozibadorligi tobora oshib borayotgan Xonobod shahri va unda yashil turizmning yashil poydevoriga asos solingan edi. Ushbu qonuniyatli holning asosida muqaddas ona yurtining ajralmas boʻlagi – Xonobod ravnaqining fidoyisi, 1972-yil 3-maydan boshlab, Xonobod shahar ijroiyy komitetining birinchi raisi lavozimida ishlagan Solijon Mehmonovning nomi bilan

bog‘liqdir[16,18,19]. Ushbu zabardast rahbarning yuqori darajadagi tashabbuskorligi, tashkilotchiligi va eng muhimi xonobodlik katta-yu, kichikning Vataniga, uning beqiyos bo‘lagi – ona shahriga bo‘lgan mehrining quvvatini bu yerda kelajakda jozibador turistik hudud bo‘lishini ta‘minlaydigan mustahkam RUHIY MUHIT YARATISHGA safarbar eta olganligi bilan bog‘liq voqeeliklar yotadi. Solijon Mehmonov Xonobod shahrida ekologik, rekreatsion va turizmning boshqa, barcha turlari shakllanishi va rivojlanishining yashil poydevorini yaratgan jismonan va ruhan kuchli, ma‘naviy boy inson bo‘lgan. Bu qutlug‘ sanani keng jamoatchilik bilan bir qatorda, Solijon Mehmonovning yuqori tashkilotchiligi va bevosita ishtirokida Xonobodda yaratilgan yilning 12 oyida uzluksiz yam-yashil bo‘lib turadigan sarvqomat qayinzorlar, archazorlar, kashtanzorlar va boshqa bog‘ majmualari, dov-daraxt va gullar taratayotgan xushbo‘ylikka burkangan istirohat bog‘i, butun borlig‘i bilan uning ruhini shod etishayotgan bo‘lsalar, ajab emas. Fikrimizcha, Solijon Mehmonov umrining yashash sharoiti, turmush tarzi, siyosiy-ijtimoiy va ruhiy qirralarini chuqur va atroflicha, tizimli tahlil hamda tizimli yondashuv tamoyillariga tayangan holda o‘rganish, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini ta‘minlashga bel bog‘lagan bunyodkor xalqimiz uchun beqiyos hayot maktabi bo‘lib xizmat qiladi, deb umid bildirish mumkin. Darhaqiqat, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini ta‘minlashda 2019-yil 4 - oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli qarori[3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-199-sonli Farmoni [6] ijrosini ta‘minlashga oid ishlar shahar va uning yaqin atrofida keng miqyosda zamon talablariga javob beradigan bunyodkorlik amaliyoti jadal sur‘atlar bilan olib borilmoqda. Jumladan, Xonobodda ham “Yashil taraqqiyot”ga o‘tish uchun “Yashil iqtisodiyotga” o‘tish va uni rivojlantirishga oid ishlar amalga oshirilmoqda. Ma‘lumki, 2023-yil, 11-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida turizm va madaniyat maskanlari imkoniyatini to‘liq ishga solish, “Yashil makon” umummilliy loyihasining kuzgi mavsumini tashkil etish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yurtimizda bu harakat 2021 -boshlangan edi. 2023-yil holatiga 1 ming 200 gektardan ortiq yashil bog‘ va jamoat parklari, 1 milliondan ziyod yashil hudud va qoplamalar barpo etildi. Umuman, jamiyatda, daraxtlarga nisbatan munosabat o‘zgardi. Endi, har yili 25-oktabrdan 1-dekabrgacha “Kuzgi daraxt ekish mavsumi” e‘lon qilindi. Xonobodda ham bu borada qir-adirliklar ustida sayyohlarni maftun etadigan bog‘lar, xiyobonlar yaratish ishlari izchillik bilan davom etmoqda. Shaharda “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlashga oid chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda, shaharning qir-adirliklari bag‘rida 600 dan ortiq dalahovlilar – “Xondacha”lar ,“Oilaviy mehmonxona”lar, gulzorlar va turli- tuman archazorlar bunyod etildi.

Xonobodda aholi sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlashda kun sayin tanilib borayotgan maskan “Archa shifo orolchasi”sihatgohidir. Ushbu maskan o‘ta tashlandiq holga kelib qolgan mehmonxona binosini, fikru-amali yaratuvchilik ruhi bilan sug‘orilgan, shifokor Yunusova Gulbahorning shijoati tufayli olib borilgan ta‘mirlash va qo‘shimcha binolar qurish va atrofni obodonlashtirish hisobiga sihatgohga aylantirildi.

Xonobodlik Siddiqov Gapar aka yoshi 70 ga yaqinlashib qolganiga qaramasdan, aholini tabiiy shifobaxsh vositalar bilan davolash ishini rivojlantirishga o‘zining baholi qudrat hissasini qo‘shib kelmoqda. U oila a‘zolari bilan birgalikda 2015-yildan buyon Xonobodning Xidirsha xududida, “QO‘RG‘ON- OY BOG‘I” fermer xo‘jaligi qoshida, qimiz va saamal bilan sog‘lomlashtirish maskanini yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ham so‘ngi yillarda, suv havzalari va ularning bo‘ylari va yaqin atroflarida ko‘plab rekreatsion destinatsiyalar tashkil etishga e‘tibor ortib bormoqda. Bu borada, Andijon viloyatining faqatgina Xonobod shahri va uning yaqin atrof hududlarida qator rekreatsion destinatsiyalar yaratilayotgalligini qayd etish mumkin. Jumladan Qoradaryo qirg‘og‘ida, 2016-yili, “Afsona-1” va 2021-yili, “Afsona-2” oilaviy dam olish maskanlari ishga tushirildi. 62 yoshli tadbirkor Ro‘zimatov Abdusalom xojining tashabbusi va bevosita tashkilotchiligi bilan yaratilgan ushbu maskanlar 50 o‘rinli oilaviy mehmonxona va bir vaqtning o‘zida 800 sayyohga yuqori darajadagi sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniga ega

zamonaviy kompleksdan iborat. Xonobod shahri hududining ichidan oqib o‘tadigan Andijonsoy, Shaxrixonsoylari har birining bo‘ylarida qurilgan 3-8 tagacha maxsus milliy so‘ri (chorpoya)lar va sayyohlarga xizmat qiladigan rekreatsion maskanlarga xos shart-sharoitlar majmualari jadal sur‘atlarda yaratilganligini ko‘rsatib o‘tish mumkin. 2024-yilning o‘zida, Andijon soy va Shaxrixon soy daryolarining oralig‘ida qator yangi turistik destinatsiyalar faoliyatlarini boshladi. Ular sayyohlarning milliy va zamonaviy xohishlariga mos keladigan ehtiyoj va talablariga javob beradigan qilib qurilganliklari bilan e‘tiborga molikdir.

Tadbirkor Azizbek Nurmuxammadovich Matisoqovning tashabbusi, loyiha va moliyaviy sarf-harajatlari evaziga bunyod etilgan “Delfin ko‘li” dam olish uyining sog‘lomlashtiruvchi turizmni rivojlantirishdagi rolini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Xonobodning “Xontaxt” tepaligidagi sayyohlarga manzur oromgohlardan biri – “O‘zbek-Qirg‘iz Do‘stlik Maskani” yaratilishida, shahar xalq deputatlari Kengashining deputati, tadbirkor Abjamilova Erkinoyning xizmatlari katta bo‘ldi.

“Jannatbuloq” dam olish maskani. Ushbu maskan Andijondan Xonobodga yaqinlashayotganda, aholi o‘rtasida “Saylgoh”deb ataluvchi tabiati go‘zal, yozning issiq kunlarida ham salqinligi bilan ajralib turadigan hududda joylashgan. Ismatullayev Dilmurod Ismatullayevich tomonidan, rossiyalik investor bilan hamkorlikda tashkil qilindi.

Xonobod nomini olamga taralishida alohida rol o‘ynagan maskan – bu shahrning istirohat bog‘idir. Bu yerda ekologik va rekreatsion turizmni tashkil qilish imkoni yaratilgan. Istirohat bog‘ining o‘ziga xos tomonlaridan biri shuki, bu yerda nafaqat O‘zbekistonning boshqa hududlaridan, balki xorijiy davlatlarning turli turistik shahar va tog‘li hududlaridan keltirilgan nabotot namunalari o‘stirilayotganligidadir. 2023 va 2024-yillari bu yerda “Dunyo sadolari” xalqaro festivallari bo‘lib o‘tdi.

Xulosa va takliflar.

Xulosalar. 1.Tadqiqotning natijalari ekologik va rekreatsion turizmning mazmun va mohiyatan moddiy va ma’naviy asosi – turistik destinatsiyalarning yaratilishini, mo‘jizakor va chevar tabiat bilan aql-zakovat sohibi insonlarning fidoyilarcha qilgan maqsadli mehnatlari uyg‘unlashuvining mahsuli ekanligini yana bir bor ta’kidlash imkonini berdi.

2.Andijon viloyatining Xonobod shahrida turistik destinatsiyalar bunyodkorlari umrining yashash sharoiti, turmush tarzi, siyosiy-ijtimoiy va ruhiy qirralarini tizimli tahlil va tizimli yondashuv prinsiplariga tayangan holda o‘rganish, Yangi O‘zbekistonni yaratish va yanada taraqqiy ettirishga bel bog‘lagan xalqimizning kattayu-kichik vakillari uchun beqiyos hayot maktabi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tavsiyalar. Mahalla fuqarolari yig‘inlari, shahar, tuman va viloyat hokimliklari faoliyatlarida ekologik va rekreatsion turistik destinatsiyalarni yaratishda mehr va mehnatlarini ayamagan, olamni tark etganlaridan keyin ham yillar, asrlar o‘tsada, nomlari elning qalbidan o‘chmagan insonlarni xotiralashga oid chora-tadbirlarni amalga oshirishdan charchamaslikni odatga aylantirishlari maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz.

Bugungi kunda ham, turistik shahar va qishloqlarni, ayniqsa ekologik va rekreatsion turizmning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratishda o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shgan va qo‘shishda davom etayotgan insonlarning yashash sharoiti va turmush tarzini, ayniqsa ruhiyatining o‘ziga xos qirralarini ochib berishga oid ilmiy-tadqiqotlar olib borish, ularga asoslangan holda hujjatli va badiiy filmlar, asarlar yaratish, kitoblar chop etish dolzarb vazifalar qatorida qaralsa ulug‘ ish bo‘lar edi. Bu borada televideniya va internet imkoniyatlarini keng qo‘llash, maktab va boshqa o‘smirlar va yoshlar muassasalarida yurtimiz bunyodkorlariga bag‘ishlangan kechalar tashkil etish foydadan holi emas. Zero, yuqorida taklif etilayotgan tadbirlar, odamlar qalbida, o‘zi yashab turgan maskanini yanada obodonlashtirish, uning turistik salohiyatini oshirishda faollik ko‘rsatganlarning nomlari, vaqtlar o‘tib ham unutilmasligi, aksincha ulug‘lanishi haqida real tushunchalar shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunday tadbirlarning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, ular nafaqat respublikamiz, balki bu yerga tashrif buyurayotgan xorijiy davlat kishilarida ham O‘zbekistonda INSON, uning EZGULIK YO‘LIDA QILGAN MEHNATI YUQORI QADRLANISHI haqida chuqur taassurot qoldirishi va muhabbat uyg‘otishida muhim rol o‘ynaydi, deb hisoblaymiz.

<p>А.Мадаханов, З.Наимова, А.Мадаханов К вопросу о роли и месте человеческого фактора в создании и использовании экологических и рекреационных туристических дестинаций</p> <p>Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы о роли и месте человеческого фактора в создании и использовании экологических и рекреационных туристических дестинаций в условиях усиленного развития внутреннего и въездного туризма в Республике Узбекистан. Приводятся данные об опыте создания и использования экологических и рекреационных туристических дестинаций в городе Ханабад Андижанской области.</p> <p>Ключевые слова: экологический туризм, рекреационный туризм, туристические дестинации, человеческий фактор, туристы.</p>	<p>A.Madakhonov, Z. Naimova, A.Madakhonov On the role and place of the human factor in the creation and use of ecological and recreational tourist destinations</p> <p>Abstract. The article considers the role and place of the human factor in the creation and use of ecological and recreational tourist destinations in the conditions of rapid development of domestic and inbound tourism in the Republic of Uzbekistan. Valuable material information on the history and experience of creating and using ecological and recreational tourist destinations in the city of Khanabad, Andijan region is presented.</p> <p>Keywords: ecological tourism, recreational tourism, tourist destinations, human factor, tourists.</p>
---	--

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

- 1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида»ги Фармони.
- 2.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 28.07.2017 йилдаги «2017-2019 йилларда Андижон вилоятининг Хонобод шаҳрини комплекс ривожлантириш» тўғрисида»ги № 557 -сонли Фармойиш.
- 3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 – 2030 yillar davrida Ўзбекистон Республикасининг “Яшил иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2019 йил 4 – октябрь, ПҚ-4477-сонли Қарори.
- 4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.01.2019 йилдаги “Ўзбекистонда туризми жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора тадбирлар тўғрисида”ги ПФ 5611 сонли Фармонига 1-илова “2019 –2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси”.
- 5.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 12.01.2024 йилдаги ПҚ-21-сон “Ўзбекистон Республикасида экологик туризми жадал ривожлантириш тўғрисида” ги Қарори.
- 6.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республикада яшиллик даражасини янада ошириш орқали экологик барқарорликни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2023 йил 23 ноябрдаги ПФ-199-сонли Фармони.
- 7.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида тиббий ва соғломлаштириш туризми янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2024 йил 23-сентябрда қабул қилинган ПҚ-335-сонли Қарори.
- 8.Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.To‘ldirigan ikkinchi nashri:.-Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti,2022.416 bet.
- 9.Абдуллаев Б.М. Хонобод комплекс экспедициясида дастлабки археологик тадқиқот моҳияти ва долзарблиги.// Хонобод – туризм гавҳари. Хонобод комплекс экспедицияси тадқиқот натижаларига бағишланган илмий-тадқиқот анжумани материаллари. Хонобод ш. 2021й. 29-ноябрь.
10. Akhmedkhodjaev R.Yangi O‘zbekistonda “Yashil” turizm salohiyatini rivojlantirish./ Jild 1№ 8 (2023): Iqtisodiy taraqqiyot vatahlil <https://e-itt.uz>eitt>article>view>
- 11.Махмудова А.П. Туризм бозорида экотуризмга бўлган талабни таъминлаш истиқболлари./Сервис.СамИСИ, Илмий-амалий журнал. 2022, махсус сон. 93-96 б.
- 12.Raximov Z.O., Norkulova D.Z. Turistik destinatsiyalarni loyihalashtirish. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand: SamLSI, 2020,188 bet.
- 13.Рекреационный туризм <https://spborbita.ru/guide/rekreacionnyj-turizm/>
- 14.Пардаев М.Қ. Инсоннинг рухияти ва кечинмалари ҳақида савол-жавоблар.Интернет материаллари асосида/Сервис.СамИСИ,Илмий-амалий журнал. 2022,махсус сон. 208 б.
- 15.Содиқова Т. “Андижоннинг Солижони/– Тошкент.: «DAVR PRESS», 2008. – 80 б.

- 16.Тураев Б.Х., Мадаханов А.С., Тухтабоев И.И., Чевар табиат, эзгуликка интилиб яшаётган инсонларнинг меҳри ва меҳнати билан яралган шаҳар. // Буюк Ипак йўли чорраҳаларида зиёрат туризми Ренессанси. Халқаро илмий амалий анжуман маърузаларининг тўплами. Самарқанд давлат университети.24-25 май 2019 йил., 70-75 бетлар.
- 17.Tuxliyev I.S., Abduhamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik.-T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. -354b.
- 18.Шамсиддин Исмои. “Она замин фидойилари” (Хотиралар). Андижон. “Хаёт” нашриёти, 2007 йил. 36 б.
- 19.Хайитбоев Р., Матякубов У. «Экологик туризм» Услубий қўлланма. СамИСИ. Самарқанд. 2010. с.60

Nozima Miraxmad qizi Toirova – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, doktranti

TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: INNOVATSION YONDOSHUVLAR VA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy turizm xizmatlari bozoridagi rivojlanish tendensiyalari chuqur tahlil qilinib, texnologik innovatsiyalar va operatsion samaradorlikka alohida e’tibor qaratildi. Tadqiqotda “aqli turizm” ekotizimlari, barqarorlik amaliyotlari va pandemiyadan keyingi strategik siljishlar asosida xizmat sifati va mijoz ehtiyojlariga moslashuvchanlik qanday oshayotganiga urg’u berildi. Ikkilamchi ma’lumotlar tahliliga asoslangan holda, maqola innovatsion yondashuvlarning xizmatlarni shaxsiylashtirish, xarajatlarni qisqartirish va raqobatbardoshlikni ta’minlashdagi rolini yoritildi.

Kalit so‘zlar: turizm xizmatlari bozori, innovatsion texnologiyalar, sun’iy intellekt, raqamlashtirish, virtual reallik, katta ma’lumotlar, blokcheyn, operatsion samaradorlik, aqli turizm, barqaror rivojlanish, raqamli infratuzilma, mijoz tajribasi, xizmatlarni shaxsiylashtirish.

Kirish. Turizm sanoati uzoq vaqtdan beri jahon iqtisodiy rivojlanishi, madaniy almashinuv va ish o‘rinlari yaratishning asosiy omili bo‘lib, kelgan. Biroq so‘nggi yillarda sektor jadal texnologik taraqqiyot, iste’molchilarning umidlarini o‘zgartirish va yanada barqaror biznes modellariga bo‘lgan zudlik bilan ehtiyoj tufayli sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Ushbu o‘zgarishlar turizm xizmatlarini yaratish, yetkazib berish va iste’mol qilish usullarini o‘zgartiradigan yangi rivojlanish tendensiyalarini keltirib chiqardi.

Sayohatchilar shaxsiylashtirilgan, immersiv va raqamli takomillashtirilgan tajribalarni tobora ko‘proq izlayotgani sayin, turizm provayderlari dinamik global bozorda raqobatbardosh qolish uchun innovatsiyalarni o‘zlashtirmoqda. Shu bilan birga, operatsiyalarni optimallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bosimi, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi kabi uzilishlar ortidan har qachongidan ham muhimroq bo‘ldi.

Ushbu maqola turizm xizmatlari bozoriga ta’sir etayotgan eng muhim tendensiyalarni o‘rganadi, ayniqsa innovatsion yondashuvlarga va operatsion samaradorlikka intilishga qaratilgan. Rivojlanayotgan texnologiyalarni, rivojlanayotgan mijozlar xatti-harakatlarini va strategik soha javoblarini tahlil qilish orqali maqola turizm sektori uzoq muddatli o‘zgarish va barqarorlikni ta’minlash bilan birga zamonaviy sayohatchilarning talablariga javob berishga qanday moslashayotgani haqida keng qamrovli ma’lumot berishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So‘nggi adabiyotlarda tez raqamlashtirish, mijozlarning kutgan o‘zgarishi va barqaror amaliyotlar uchun bosim kuchayishi tufayli turizm xizmatlari bozorining jadal evolyutsiyasi ta’kidlangan. Bugungi kunda tadqiqotchilar innovatsiyalar va operatsion samaradorlik qanday qilib turizm sanoatida raqobat ustunligining asosiga aylanayotganini ta’kidlab kelishdi.

Sigalat [1] mijozlar tajribasi va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt, blokcheyn va IoT kabi buzuvchi texnologiyalarning o‘zgaruvchan rolini o‘rganadi. Ushbu texnologiyalar yanada oqilona qarorlar qabul qilish, real vaqt rejimida ma’lumotlarni tahlil qilish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu orqali sodda va kengaytiriladigan biznes modellarini yaratishga yordam beradi.

Gretzel [2] bu dalilni “aqli turizm ekotizimlari” kontsepsiyasini muhokama qilish orqali kengaytiradi, bu yerda o‘zaro bog‘langan texnologiyalar, manfaatdor tomonlar va xizmatlar birgalikda sayyohlar qoniqishini va operatsion samaradorlikni oshirish uchun ishlaydi. Ularning ta’kidlashicha, aqli infratuzilma va raqamli integratsiya xizmat ko‘rsatishdagi ishqalanishni kamaytirish bilan birga uzluksiz sayohat tajribasini yaratish uchun juda muhimdir.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.